

“ANTROPOSENTRIK YONDASHUV” VA “INSONPARVARLIK” TUSHUNCHALARINING MAZMUN-MOHİYATI

Xamidova Nigora Ibroximovna-
UBS, Maktabgacha - Boshlang'ich ta'lim
va sport faoliyati kafedrası o'qituvchisi
E-mail: hamidovanigora6868@gmail.com
Tel raqam: 99893 711 81 16

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarda antroposentrik yondashuv asosida insonparvarlik fazilatlarini shakllantirishni, antroposentrik yondashuvning tarkibiy qismlari, ushbu tushunchalarni ilmiy adabiyotlarda yotilishi haqida, “antroposentrik yondashuv” hamda “insonparvarlik” tushunchalarining mohiyati hususida fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlar: Mehr-oqibat, rahimdillik, shavqatlilik, millat, ilmiy-nazariy, totuvlik, xalqaro, antroposentrik, begʻarazlik, samimiylik, oliyjanoblik, xayrixohlik, gʻamxoʻrlik, mehribonlik, muruvvatlilik, saxovatpeshalik, kuyinchaklik, odillik, haqgoʻylik, haqqoniylik, adolatparvarlik, oʻzganing dardini tushuna olish, bagʻrikenglik, tolerantlik.

СОДЕРЖАНИЕ ПОНЯТИЙ «АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКИЙ ПОДХОД» И «ЧЕЛОВЕЧНОСТЬ»

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование гуманитарных качеств у учащихся младших классов на основе антропоцентрического подхода, компоненты антропоцентрического подхода, включение этих понятий в научную литературу, сущность понятий «антропоцентрический подход» и «гуманитаризм».

Ключевые слова: Доброта, сострадание, щедрость, нация, научно-теоретическая, гармония, интернациональная, антропоцентрическая, альтруизм, искренность, благородство, доброжелательность, забота, доброта, доброжелательность, щедрость, мягкость, справедливость, правдивость, правдивость, справедливость, понимание чужой боли, толерантность, толерантность.

THE CONTENT OF THE CONCEPTS OF ANTHROPOCENTRIC APPROACH AND HUMANITY

Abstract: This article discusses the formation of humanitarian qualities in primary school students based on the anthropocentric approach, the components of the anthropocentric approach, the inclusion of these concepts in scientific literature, the essence of the concepts of "anthropocentric approach" and "humanitarianism"

Key words: Kindness, compassion, generosity, nation, scientific-theoretical, harmony, international, anthropocentric, altruism, sincerity, nobility, benevolence, care, kindness,

benevolence, generosity, gentleness, justice, truthfulness, truthfulness, justice, understanding the pain of others, tolerance, tolerance

KIRISH

Bugungi global o'zgarishlar davrida insoniyatning fan-texnikaga tobora qaram bo'lib borayotganligi, insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat, rahmdillik, shavqatlilik, hamdardlik kabi tuyg'ularning susayib borishi butun dunyo bo'ylab o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Mazkur muammo butun insoniyatni o'ylantirayotgan global muammoga aylanib bormoqda. Jumladan, BMT 2008-yilda 19-avgust sanasini "Xalqaro insonparvarlik yordami kuni" deb e'lon qilishi ham fikrimizning dalili bo'la oladi. Mamlakatimizda ta'lim samaradorligini oshirish, ayniqsa, boshlang'ich ta'limning didaktik-pedagogik jihatlarini takomillashtirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv – biluv faoliyatini jahon ta'lim standartlariga moslashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, "Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida sog'lom, bilimli, teran fikrli, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz shart va zarur". Bu esa antroposentrik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish masalalari tadqiqi dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi antroposentrik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqotning vazifalari esa antroposentrik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik fazilatlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tahlil etishdan iboratdir

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

R.Safarovaning "Modernizatsiyalashgan ta'lim jarayonida o'quvchilarni pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali ijtimoiylashtirish imkoniyatlari" darsligida antroposentrik yondashuvni til hodisalarini alohida-alohida, bir-biridan ajratgan holda tahlil qilinishi natijasida yuzaga kelgan nuqsonlarini bartaraf qilish sifatida ta'kidlab o'tganlar. V A.Maslovaning "Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiy" kitobida esa inson aqlini insonning o'zidan, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi deb ta'kidlaydi.

Q.Yo'ldoshev "Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari" darsligida antroposentrik yondashuvni har bir inson shaxsiyatida demokratik sifatlarni shakllantirishga qaratadi. Toptalmagan erk, sindirilmagan insoniy g'urur uning faoliyatida ham, fikrlarida ham ijodkorlik bo'lishiga olib keladi. Bunda o'qituvchi bilan ta'lim oluvchi orasida chinakam insoniy munosabatlar o'rnatiladi deb ta'kidlaydi.

Sobirova M.Y. "Ona tili ta'limiga antroposentrik yondashuvning imliy-metodik asoslari va texnologiyalari". Ped.fan.dok.diss (DSc) M. antroposentrik yondashuvga "Ta'limni inson omili bilan bog'lab o'rganadigan, individuallik, insonparvarlik, foydalilik, o'z-o'zini namoyon etishga asoslangan yondashuv" deb ta'kidlaydi. M.Y.Sobirovaning antroposentrik yondashuvga bergan ta'rifi aynan mazkur yondashuv mazmuni va mohiyatini to'liq ochishga hizmat qilgan deyish mumkin.

Antroposentrik yondashuv tushunchasini L.D.Valeyeva o'zining "Pedagogikaning antroposentrik modeli" kitobida asrlar davomida shakllangan milliy qadriyalar, shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarning ustuni sifatida e'tirof etadi. Darhaqiqat aytish mumkinki, barcha munosabatlarning markzaida isnonning mavjudligi, uning shaxsiy hamda ijtimoiy munosabatlarida akslanadi.

Profesor R.G.Safarova muallifligidagi "Pedagogik ensiklopediya"da "antroposentrizm" tushunchasi inson-olam, koinotning markazi va uning pirovard maqsadi ekanligi to'g'risidagi qarash deb ko'rsatilgan. Ya'ni, "antroposentrizm – narsa va xodisalarni faqat maqsadga muvofiqligi, ya'ni teleologik nuqtai nazardan ko'rish, o'rganish bilan bog'liqligini ifodalaydi .

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Antropotsentrizm so'zi yunoncha antropos – odam hamda lotincha sentrum markaz ma'nosini bildiruvchi so'zlar birikuvidan hosil bo'lgan.[1]

Antropotsentrizm atamasi dastlab qadimgi yunon falsafasining "Inson - koinot markazidir" degan g'oyani ilgari suruvchi qarashiga nisbatan qo'llanilgan bo'lib, bu g'oya, ayniqsa, o'rta asrlar Yevropasida keng tarqalgan. O'zbek tilining izohli lug'atida ham "antropo" tup so'ziga izoh berilgan bo'lib, "odamga aloqadorlikni bildiruvchi yasama so'zlarning tarkibiy qismi" deb ta'kidlab ko'rsatilgan.

Antroposentrik yondashuv tushunchasini quyidagicha talqin etish mumkin: "Ta'lim-tarbiya jarayonining shaxsga yo'naltirilishi, har bir ta'lim oluvchining shaxsiy qadriyat ekanligi va uning kamol topishiga, rivojlanishiga hamda ijtimoiy munosabatlarga kirishishiga qaratilgan, jamiyatdagi ego g'oyalarga qarshi turishga yo'naltirilgan yondashuv" dir. Antroposentrik yondashuvga ta'rif berilganda e'tibor va e'tirof, bag'rikenglik, tolerantlik, g'amxo'rlik, hamkorlikda ishlash, mehr-oqibat kabi tushunchalarga ham to'xtalib o'tish joiz. Shu o'rinda ushbu tushunchalarni izohlab o'tishni lozim deb topdik. Chunki ushbu tushunchalar antroposentrik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik fazilatlarini shakllantirishda juda ham muhimdir [2]

E'tibor va e'tirof – e'tibor tushunchasi o'zbek tilining izohli lug'atida hurmat, izzat-ikrom, hisobga, nazarga olish, obro', nufuz, biror narsa yoki shaxsga qaratilgan nazar deb takidlansa, e'tirof tushunchasi tanish, tan olish, iqrar bo'lish, bo'yniga olish, biro ish yoki harakatni to'g'ri deb hisoblash kabi ma'nolarni anglatadi.

"Bag'rikenglik" tushunchasi deyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to'ldiruvchi ma'no kasb etib, "chidam", "bardosh", "toqat", "o'zgalarning xatti-harakati, yurish-turishi, muomalasi, kiyinishi, e'tiqodiga toqat qilish, ularni boricha qabul qilish", "o'zgacha qarash yoki harakatga hurmat bilan munosabat", "muruvvat", "himmat", "mehr", "kechirimlilik", "hamdardlik" kabi ma'nolarda keladi.[3]

Tolerantlik – o'zgalarning fikr g'oyalari, e'tiqodi, his-tuyg'ulari, turmush-tarzi, hulq-atvoriga nisbatan sabr-toqatli bo'lishdir

G'amxo'rlik – kimsa haqida qayg'urish, uning g'amini yeyish, g'amho'r shaxsga hos ish, hatti-harakat. Global jamiyatda har bir o'quvchi o'z o'rnini topishi, kamolga yetishi va jamiyatlashuvida antroposentrik yondashuvning muhim qismi bo'lgan g'amho'rlikning o'rne ulkandir. [4]

Hamkorlikda ishlash – ta'lim ishtirokchilari ya'ni pedagog, pedagoglar jamoasi, ta'lim muassasasi rahbariyati, ta'lim oluvchi o'quvchi, ota-onalar yohud ularni o'rnini bosuvchi shaxslar o'rtasidagi munosabatni tartibga soluvchi, obyekt-subyekt, subyekt-subyekt munosabatlarini qaror toptiruvchi o'qitish texnologiyasidir. Ayniqsa boshlang'ich ta'limda ta'lim olayotgan o'quvchilar

ko'pincha o'zgalar yordamiga muhtoj bo'ladi. Ma'lum yumushni sherigi yoki ustoz bilan hamkorlikda bajarish unga birmuncha osonroq va qulaylikni keltirib chiqaradi. Qaysidir ma'noda hamkorlikda ishlash pragmatizmni o'zida mujassamlashtiradi. Pragmatizm – harakat, intish ma'nolarini ifodalab, shu harakat orqali biror bir foyda, manfaatlarga ega bo'lishni, shaxsning maqsadi, say-harakatlari, faoliyatlari, mehnatiga muvofiq harakatlarni ifodalaydi [5].

Shaxsga yo'naltirilganlik – o'quvchi shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Shaxsga yo'nalganlikning bir qator belgilari mavjud:

- Har bir o'quvchiga buyuk shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, uni tushunish, qabul qilish, unga ishonish;
- Ta'limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda o'quvchi o'zini shaxs deb sezsini, unga bo'lgan e'tiborni tuysin;
- Bolaga tazyiq o'tkazmaslik hamda uning kamchiligini bo'rttirmaslik; bilimlarni o'zlashtirmasligi, o'zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni bolaning shaxsiyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda bartaraf etish;
- Ta'limda "muvaffaqiyat muhiti" ni tashkil etish, bolaga o'qishda muvaffaqiyat qozonishga yordam berish, uning o'z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish. O'quvchiga atrofdagilarning har biri o'zi kabi ekanligini anglatish, unda jamoaga aloqadorlik hissini rivojlantirish;
- O'quvchining hurmati va ishonchini qozonish, o'ziga ham shaxs nuqtai nazaridan qarash.

Ontogenez nuqtai nazaridan "insonparvarlik" tushunchasi o'zbek tiliga arab va fars-tojik tillaridan kirib kelgan bo'lib, arabcha "inson" ("odam"), forsha-tojikcha "parvar" ("g'amxo'rlik") atamallari hamda "lik" qo'shimchasining birikmasi sifatida qabul qilingan. Ma'no jihatidan bu tushuncha o'zbek tilida "shaxsga g'amxo'rlik qilish", "shaxsni voyaga yetkazish", "shaxsni tarbiyalash", "shaxsga ijobiy munosabatda bo'lish" kabi ma'nolarini anglatadi. Lug'aviy jihatdan esa insonparvarlik "odamning qadri, uning erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish, insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli

hayotini ta'min etishga intilish, insoniylikning barcha tamoyillari yuzaga chiqishga shart-sharoitlarni yaratish" demakdir.

Ayrim manbalarda "insonparvarlik" tushunchasining izohi batafsil yoritilgan. Masalan, "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da bu tushuncha quyidagicha izohlangan: insonparvarlik – insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqliligi to'g'risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Unga ko'ra, dunyoda eng qimmatli narsa insondir, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt-saodatiga xizmat qilishi lozim. Inson taqdiri, xalq manfaatlari, mamlakat kishilari haqida g'amxo'rlik insonparvarlikning asosiy masalasidir".

Mohiyatiga ko'ra "gumanizm" tushunchasi bir necha ma'noni ifodalaydi. Chunonchi, Yevropa Uyg'onish davrining nomlanishi hamda turli madaniy harakatlar, g'oyaviy oqimlar, jamoatchilik fikrining yo'nalishi; gumanitar fanlar tomonidan afzal bilinadigan nazariy bilimlar sohasining nomi; shaxsning odamiylik, ezgulik, hurmat kabi fazilatlarini belgilovchi axloqiy sifatlar; shaxsga nisbatan hayotning oliy qadriyati sifatida munosabatda bo'lish; umuminsoniy ideallarga erishishga qaratilgan amaliy faoliyatning nomlanishi. Ayni o'rinda "insonparvarlik" tushunchasi negizida yoritiladigan ma'nolar ro'yxatini quyidagicha davom ettirish mumkin: jamiyat yoki shaxsning ma'naviy-axloqiy yetukligi darajasini belgilovchi tamoyil; ijtimoiy harakat yo'nalishi; inson huquqlarini himoya qilishning muhim sharti.

Insonparvarlik negizida shaxsga xos quyidagi sifatlar – beg'arazlik, samimiylilik, oliyjanoblik, xayrixohlik, rahmdillik, g'amxo'rlik, mehribonlik, muruvvatlilik, saxovatpeshalik, kuyinchaklik, odillik, haqgo'ylik, haqqoniylik, adolatparvarlik, o'zganing dardini tushuna olish, bag'rikenglik, tolerantlik va boshqalar.

Asrlar davomida beg'arazlik, samimiylilik, g'amxo'rlik, oliyjanoblik, xayrixohlik, rahmdillik, mehribonlik, muruvvatlilik, saxovatpeshalik, kuyinchaklik, odillik, haqgo'ylik, haqqoniylik, adolatparvarlik, o'zganing dardini tushuna olish kabilar insonparvarlik negizida aks etuvchi asosiy fazilatlar sifatida e'tirof etib

kelingan bo'lsa, global axborotlashuv ta'sirida diniy bag'rikenglik, boshqacha ifodalanganda, tolerantlik tobora dolzarblashmoqda. Buning asosiy sababi turli dinga e'tiqod qiluvchi kishilar o'rtasida bir-birlarining maslaklariga toqatsizlik yuzaga kelmoqda. Bu holat, ayniqsa, AQSh, Yevropa mamlakatlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Shu sababli turli diniy konfessiyalarga mansub shaxslar o'rtasida o'zaro hamjihatlik, totuvlikni qaror toptirish har bir jamiyat oldida turgan muhim ijtimoiy vazifalardan biri sanaladi.

Insonparvarlik sifatlarini o'zida mujassam qilgan insonparvar shaxsning xatti-harakatlarida atrofdagilarga yaxshilik va g'amxo'rlik qilish, hurmat bilan munosabatda bo'lish, himmat ko'rsatish, ularni yoqtirish, ular o'rtasida ezgu g'oyalarni targ'ib qilish, ular haqida qayg'urish holatlari ko'zga tashlanadi. O'zi tanigan-tanimagan kishilarning boshlariga biror bir musibat tushsa yoki ular biror-bir muammoga duch kelsa insonparvar shaxs doimo yordamga shoshadi, qo'lidan kelganida ularni qo'llab-quvvatlaydi. Atrofdagilarga nafrat bilan munosabatda bo'lish, ko'ngli torlik, ko'ra olmaslik, ko'ngli qoralik, hasadgo'ylik, adolatsizlik insonparvar shaxsning xulq-atvoriga zid bo'lgan illat hisoblanadi.

Mazmunan insonparvarlik g'oyalari umuminsoniy, jamoaviy, individual shaklda tabiiy (toshqin, zilzila, qurg'oqchilik, o'rmon yong'inlari) yoki ijtimoiy (urush harakati, tabiiy ofatdan keyingi tiklanish jarayoni, zulm, zo'ravonlik kuchaygan, adolatsizlik, haqsizlik avj olgan vaqt)da o'ziga xos dolzarblik kasb etadi.

Bugungi kunda "insonparvarlik har bir huquqiy, demokratik davlatning hayot qoidalaridan biriga aylanmoqda.[6] Bo'lajak yosh avlodni axloq va huquq doirasida insonparvarlik g'oyasini singdirish uchun quydagi tavsiyalar ham katta samara beradi. Qadimdan xalq og'zaki ijodi, diniy qarashlar, falsafiy ta'limotlar hamda adabiyotda muhim mavzu bo'lib kelgan, xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan ertaklar, masallar, maqollar, xalq laparlari, marosim qo'shiqlari, milliy bayramlarimiz ulardagi urf-odatlarimiz insonparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Umumta'lim maktablarida kelajak soatlari darslarida kichik videoroliklar orqali ota-ona va farzandlar o'rtasidagi mehr-muhabbat, tug'ishganlar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar o'rtasidagi oqibat, o'zaro yordam, yetim-yesir, beva-bechora, faqir va miskinlarga nisbatan g'amxo'rlik,

mushkul ahvolga tushib qolgan shaxs, misol uchun, qarzдор kishiga ko'rsatiladigan moliyaviy ko'mak, ruhiy tushkunlikdagi xasta bemorga beriladigan ma'naviy dalda insonparvarlikning yaqqol namunasi ekani aytiladi va ko'rsatiladi. Qolaversa, insonparvarlik nafaqat ijtimoiy subyektlarga, shu bilan birga hayvonot va nabotot olamiga bo'lgan munosabatda ham namoyon bo'ladi. Chunonchi, ularni asrab-avaylash, parvarish hamda muhofaza qilish, ularni ko'paytirish to'g'risida qayg'urish va bu yo'lda amaliy harakatlarni tashkil etish, mehnat jarayonida hashar ko'rinishida beminnat yordam ko'rsatish kabi jarayonlarni amalga oshirilsa o'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich ta'lim o'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirishning qulay davri sanaladi. Bu davrda maktabgacha ta'lim davrining izchil davomi sifatida o'quvchilar ijtimoiy ahamiyatga ega ma'naviy-axloqiy me'yorlar bilan tanishadi, ularning ham shaxs ham jamiyat uchun afzalliklarini tushuna boshlaydi. Aynan boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarda o'qish faoliyati bilan bog'liq holda mas'uliyat tuyg'usi shakllanadi. Bu tuyg'u boshlang'ich sinf o'quvchilarini oilada uy yumushlariga, ta'lim muassasasida ijtimoiy-foydali mehnatga jalb qilish orqali asta-sekin tobora mustahkamlanib boradi. Qolaversa, globallashtirish jarayonining tezlashuvi, milliy qadriyatlarga mos kelmaydigan, hatto, radikal guruhlar, shu jumladan, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar tomonidan tarbiya borasidagi milliy yondashuvlarga o'ta zid bo'lgan buzg'unchi g'oyalarning "demokratik tamoyillar" sifatida targ'ib qilinishi, shaxs ongini egallashga bo'lgan intilishning kuchayishi negizida boshlang'ich sinf o'quvchilarni asrlar davomida shakllanib hamda e'tirof etib kelingan umumiy insonparvarlik g'oyalar bilan tanishtirish o'ziga xos dolzarblik va ogohlikka da'vat etmoqda.

Shu sababli boshlang'ich ta'lim o'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirishning puxta asoslangan mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, insonparvarlik g'oyasi shaxsning ma'naviy-axloqiy fazilatlaridan, shuningdek, ijtimoiy tafakkurning muhim asoslaridan biri sanaladi. Bu g'oya shaxslararo munosabatlarni tashkil qilishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Binobarin, insonparvarlik negizida shaxslarning bir-birlariga bo'lgan samimiy, xayrixoh munosabati, o'zaro bir-birlarini qo'llab-quvvatlash, bir-birlarining erkinligi, haq-huquqlari, manfaatlariga hurmat bilan yondashishga qaratilgan harakatlari aks etadi. Insonparvarlik ijtimoiy munosabatlarning ijobiy xarakterga ega bo'lishini ta'minlaydi. Shu sababli insonparvarlik g'oyasi zamonaviy ta'limda o'ziga xos ustuvorlik kasb etuvchi tamoyillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.56 b
- 2.Pedagogik ensiklopediya 1 jild. Toshkent.2015. 72-b
- 3.O'zbek tilining izohli lug'ati. T.: 2015. – 192-b – 138b.
- 4.Диний бағрикенглик–мамлакат барқарорлиги гарови // https://uza.uz/ru/posts/diniy-bagrikenglik-mamlakat-barqarorligi-garovi_351491?q=posts_diniy-bagrikenglik-mamlakat-barqarorligi-garovi_351491.
- 5.Бекмуродов М. Ўзбек минталитети. Т.: Янги аср авлоди. 2004. Б.21.
- 6.Идеи гуманизма в мировой и общественной педагогике // https://spravochnick.ru/pedagogika/idei_gumanizma_v_mirovoy_i_obschestvennoy_pedagogike
7. Sobirova M.Y. "Ona tili ta'limiga antroposentrik yondashuvning imliy-metodik asoslari va texnologiyalari" Namangan.: 2023. – 32-b